

KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA 눈/KO'Z LEKSEK KOMPLEMENTLI SOMATIK FRAZELOGIZMLARNING O'XSHASH VA FARQLI TOMONLARI

N. Nosirova

SamDCHTI o'qituvchisi

ABSTRACT

This article includes a comparative analysis of the existing differences and equivalent phraseologisms of the somatic expressions expressed by the nun/eye lexeme in the lexicology of the Korean and Uzbek languages. In both languages, examples of somatic expressions with nun/eye lexical component are given and their analysis is shown. Reactions to existing theories are given.

Key words: somatic phraseology, expression, equivalence, eye somatism, comparative analysis.

KIRISH

Frazeologik iboralar o'zi ifodalayotgan so'zlarga nisbatan kuchliroq ma'no qo'shishi hamda obrazlilikni faollashtirish uchun xizmat qiladi. Frazeologizmlar o'z-o'zidan paydo bo'libgina qolmasdan ular bir xalqning qadimiy urf-odatlaridan, turmush tarzidagi voqea-hodisalardan dalolat berish bilan birga insonlarning xatti-harakatlari, fe'l-atvoriga xos xususiyatlarni ifodalashda beqiyos va serjilo o'rin egallaydi. Koreys va o'zbek tillarining har ikkida ham inson tana a'zolari ishtirokidagi somatik komponentli iboralar salmoqli ahamiyatga ega.

Quyida koreys tilidagi 눈 (ko'z) komponentli iboralarning ba'zilar bilan tanishib chiqib ularga o'z xulosalarimizni beramiz.

1. 눈감아 주다 (모르는 척하다) ko'z yummoq, bilmaganga olmoq.

예: 며칠 전 한 아이가 물건 훔치는 걸 봤는데, 그냥 모르는 척 눈감아 줬어. (Bir necha kun oldin bir bolaning buyum o'g'irlayotganini ko'rgandim ammo o'zimni ko'rmaganlikga olib shunchaki ko'z yumdim. Bu ibora o'zbek tilida ham koreys tilida ifodalayotgan ma'noni beradi: ko'z yummoq somatik iborasi o'zbek tilida bir qancha ma'nolarni ifodalaydi. .

Ko'z yummoq¹ - bilmaganga olmoq, kechirmoq

Misol: "Itoatdan bosh tortmasin..." degan mulohazada yozgan shikoyatlarimizdan markazning ko'z yumishi ham ehtimoldir. (A. Qodiriy, "O'tkan kunlar")

Ko'z yummoq³ – uxlam, uyquga ketmoq.

Misol: Kumush ko'z yumish o'rniga yostiqlardan boshini uzdi va yerga tushkan ro'molini o'rab, o'lturdi. (A. Qodiriy, "O'tkan kunlar")

Ko'z yummoq - olamdan o'tmog, vafot etmoq.

Misol: Agar men bu foni dunyodan ko'z yumsam, hammangiz Bobur mirzoning amrini hozirgi mening amrim kabi bajo keltirgaysiz. (P.Qodirov, "Yulduzli tunlar").

Ammo koreys tilida esa faqatgina o'zbek tilidagi ko'z yummoq iborasining bila turib bilmaganga olmoq, kechirmoq ma'nosini ifodalashga xizmat qiladigan iborasigagina sinonimlik qila oladi.

2. 눈 빠지게 기다리다 (오래 기다리다) ko'zi oqib tushadigandek kutmoq

예: 네 여자 친구가 네가 졸업할 날만 눈 빠지게 기다리고 있는 걸 모르는 줄 알아? (Sening qiz o'rtog'ing institutni bitiradigan kuningni ko'zi oqib tushgudek kutayotganini bilasanmi?). Koreys tilidagi ushbu ibora ham o'zbek tilida o'z ekvivalentiga ega. *Ko'zi to'rt bo'lib kutmoq* iborasi o'rnida ishlata olishimiz mumkin.

3. 눈에 선하다 (잊히지 않고 눈앞에 보이는 듯 기억에 생생하다 ko'z oldida namoyon bo'lmoq, ko'z oldida gavdalanmoq, ko'z o'ngidan o'tmoq

우리 애 방을 청소할 때마다 책상에 앉아서 공부하던 모습이 눈에 선합니다. (Bolamizning xonasini tozalayotgan paytimda partaga o'tirib dars qilayotgani ko'z o'ngimda namoyon bo'ladi.) O'zbek tilida aynan shu ma'noni beruvchi "ko'z o'ngidan o'tmoq" iborasi bilan sinonimlik hosil qiladi deb aytolamiz.

4. 눈 깜짝할 사이 (매우 짧은 순간) ko'z ochib yumguncha ya'ni juda qisqa vaqt ichida degan ma'noni ifodalaydi.

예: 눈 깜짝할 사이에 십 년의 세월이 흘렀다. (*Ko'z ochib yumguncha* 10 yil o'tib ketdi).

5. 눈을 붙이다 (잠을 자다) ko'zini ildirmoq, biroz mizg'ib olmoq.

예: 3 시간 운전해야 하니까 미리 눈 좀 붙이자. (3 soatlarcha mashina haydashimiz kerakligi uchun oldinroq biroz ko'z ildirib olaylik).

6. 눈이 맞다 (두 사람의 마음이나 눈치가 서로 통하다). Qarashlari o'zaro to'g'ri kelmoq (uzukka ko'z qo'ygandek).

Ushbu ko'z leksemasi orqali ifodalanagan iborada ko'z so'zi o'z ma'nosidan biroz yiroqlaahgan bo'lsa-da, ko'z orqali ifodalanadigan *qaramoq*, *qarash* o'zbek tiliga tarjima qilinganda uzukka ko'z qo'ygandek degan ma'noni bergani sababli ushbu iboralarni ikki tilda ham o'zaro o'rindosh sifatida ishlatishimiz mumkin. Chunki bu somatik frazeologizm *qaramoq*, *qarash* so'zlari albatta ko'z leksemasi orqaligina amalga oshirilishi mumkinligi sababli 눈 (ko'z) somatizmi orqali hosil qilingani anglay olamiz.

7. 눈앞이 캄캄하다 (몹시 어렵거나 뜻밖의 경우를 당하다) ko'z oldi qorong'ulashmoq

예: 아버지께서 사고를 당하셨다는 소식에 눈 앞이 캄캄해졌다.

(Dadamning avto halokatga uchragani haqidagi xabardan ko'z oldim qorong'ulashib ketdi).

8. 눈에 불을 켜다 (몹시 욕심을 내거나 관심을 기울이다) qiziqish uyg'onmoq, ko'zidan o't chaqnamoq

예: 그는 돈이 생기는 일이라면 눈에 불을 켜고 달려든다. (U pul keladigan ish bo'lsa ko'zidan o't chaqnab yuguradi).

9. 눈에서 벗어나다 (누군가이 감시나 구속에서 자유롭게 되다) ko'zdan g'oyib bo'lmoq, qochib qutlmoq.

예: 나는 과장님께 말대꾸를 했다는 이유로 과장님의 *눈에서 벗어나게 되었다*.
(Men bo'lim boshlig'i bilan gap talashib qolganligim sababli uning ko'zidan g'oyib bo'ldim).

10. 눈을 맞추다 (서로 눈을 마주 보다) ko'zi ko'ziga tushmoq, ko'zlar to'qnashmoq.

예: 그 날 그녀와 *눈을 맞추었을 때* 사랑에 빠졌다. (O'sha kuni u qizning ko'ziga ko'zim tushganida uni sevib qolganman).

11. 눈을 속이다 (잠시 수단을 써서 보는 사람이 속아 넘어가게 하다) ko'zini aldamoq.

예: 영화의 주인공은 추격자의 *눈을 속이면서* 유유히 마을을 벗어났다.
(Filmining bosh qahramoni ta'qibchilarni ko'zini aldab qishloqni sezdirmasdan tark etdi).

Shu o'rinda o'zbek tili leksekologiyasiga nazar tashlasak, ko'z somatizmi orqali ifodalanadigan frazeologizmlar ham tilimizda sezilarli ahamiyat kasb etyadi. Masalan, "o'zbek tilining frazeologik lug'atida" ko'z leksemasi orqali ifodalangan 50 dan ortiq ko'z komponentli somatik farzeologizmlar ro'yhatga olingan. Shundan ko'rinib turibdiki, o'zbek tili leksikologiyasida ko'z komponenti leksemasi bilan ifodalangan iboralar faol darajada o'rin egallaganligini ko'rsatib turibdi. O'zbek tili leksekologiyasida ko'z leksemali somatik frazeologizmlarining hosil bo'lishida ko'z somatizmi bilan birgalikda fe'l (ko'zdan qochirmoq), ot (ko'zining nuri), ravish (ko'zi moshdek ochilmoq), sifat (ko'zi to'q), son va fe'l (ko'zi to'rt bo'lmoq, bir ko'zda qaramoq,) kabi leksemalar bilan ifodalanib keladi. Shuningdek o'zbek tilida uchraydigan ko'z somatizimli iboralardan yana batafsilroq misollar bilan ko'rib chiqishimiz mumkin. Shu o'rinda o'zbek tilida mavjud bo'lgan ba'zi ko'z leksemasi ishtirokidagi frazeologizmlarning koreys tilida uchraydigan 눈 (ko'z) somatik frazeologizmlar orasida o'zaro muqobil variantlari ham mavjud ekanligiga guvoh bo'lamiz.

1. Ko'zdan qochirmoq-qaramoq, nazar tashlamoq.

Misol: Ayol bemor bo'lishiga qaramasdan Fotimaning bolalarga munosabatini ko'zdan qochirmasdi. (Ahmad Lutfiy Qozonchi "O'gay ona").

2. Ko'z qirini tashlamoq- sezdirmasdan qarab qo'ymoq.

Misol: Otabek ham istehzoli tabassum orasida Homidga ko'z qirini tashlab qo'ydi.

3. Ko'ziga tik qaramoq-boqmoq, ko'ziga diqqat bilan qaramoq.

Misol: -Xayr,- qo'limni qattiq siqib, ko'zlarimga tik qaradi u. (Z. saidnosirova "Oybegim mening").

Xulosa qilib aytganda, koreys va o'zbek tillarida 눈/ko'z somatizmi ishtirokidagi frazeologizmlar har ikki til leksik bazasida faol ishlatiladigan birliklar sifatida ahamiyatlidir. Ushbu 눈/ko'z leksemasi orqali namoyon bo'ladigan somatik iboralar nutqimizda tez-tez uchrab, nutqning oydin va tushinarli bo'lishida va nutqqa qo'shimcha

urg'u hamda ma'no yuklash vazifalarini bajaradi. Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, ko'z somatizmi orqali hosil bo'lgan frazeologizmlar har ikki tilda ham sinonimlik qila olish xususiyatiga ega va har ikki tilda ham ushbu ko'z so'zi o'zining asl ma'nosini saqlagan holda yuzaga chiqishidir. Bu esa o'z navbatida Koreys va O'zbek xalqining etnik yaqinligi, urf-odatlari, turmush tarzi, milliy mentaliteti o'zaro chambarchas ekanligidan dalolat beradi deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar"-www.ziyo. com kutubxonasi
2. Ahmad Lutfiy Qozonchi "O'gay ona" 2009.64b
3. Mamatov A.E "O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari", Toshkent.2000
4. Mamajonova M.M "Ingliz va o 'zbek tillarida somatic frazeologizmlarning qiyosiy tahlili" 2022
5. Primqul Qodirov "Yulduzli tunlar"-www.ziyo.com kutubxonasi
6. Zarifa Saidnosirova "Oybegim mening" www.ziyo.com kutubxonasi
7. Eshimova, S. K. (2022). Koreys badiiy adabiyotida personifikatsiyaning ifodalanishi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 24), 356-364.
8. Khamroyeva Sh "O 'zbek tilida somatik iboralar korpusining interfeysi va manbalari
9. 신혜인 "중국인 학습자를 위한 한국어 관용표현 및 교육 방안 연구
10. <https://unomasuno.tistory.com> 국어 관용표현-눈과 관련된 표현 정리
11. Kenjaboevna, S. E., & Ugli, K. M. S. (2021). The phenomenon of personalization in korean (on the example of fairy tales). *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(6), 677-681.
12. Базарова, III. III. (2022). Koreys adibasi shin kyon suk ijodining o'ziga xosligi xususida. *Международный журнал искусство слова*, 5(3).
13. Назарова, III. (2017). О масштабе реализации феномена транспозиции. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 2(3 (64)), 83-87.
14. Usmonqulovna, B. D., & Aziz To'lqin o'g, A. (2023). O'zbek va koreys tillarida adyektivatsiya hodisasi. *Journal of new century innovations*, 24(1), 46-49.
15. Баёнханова, И. Ф. (2022). Корейс ва ўзбек тилидаги паремиологик бирликларнинг қиёслаб ўрганиши. *Scientific progress*, 3(3), 265-269
16. Kamarova, M. (2022). Koreys va o'zbek tillarida so'z yasovchi qo'shimchalar orqali so'z yasalishi qiyosiy tadqiqotidan ta'limda foydalanish. *Ученый XXI века*, (7 (88)), 34-41.
17. Байматова, М. (2022). Проблема перевода и адаптации непереводаемой терминологии (на примере английского и корейского языков). Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков, 1(01), 190-192

18. Вахабова, М. Т. (2023). Сопоставительный анализ ключевой лексики-репрезентанта (имени) концепта «мать» в русском, корейском и узбекском языках (на материале словарей). *Journal of Integrated Education and Research*, 2(3), 52-57.
19. Вахабова, М. Т. (2023). Становление лингвокультурологии как самостоятельной научной дисциплины. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, 1(6), 101-103.